



TALABALARDA VATANPARVARLIK FAZILATINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL JIHALARI

Mirzakarimov X. Yu.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Farg'ona filiali o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: vatanparvarlik fazilatlari, or-nomus, g'urur, qat'iyatlilik, halollik, iroda, rostgo'ylik, samimiylik, vijdon.

Ключевые слова: патриотические качества, честь, гордость, решительность, честность, воля, правдивость, искренность, совесть.

Key words: patriotic qualities, honor, pride, determination, honesty, will, truthfulness, sincerity, conscience.

Резюме:

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning asosiy konseptual jihatlari haqidagi fikrlar bildirilgan.

Резюме:

В данной статье представлены основные концептуальные аспекты успешной организации процесса совершенствования системы воспитания молодежи в духе военного патриотизма среди студентов высших учебных заведений.

Summary:

This article presents the main conceptual aspects of the successful organization of the process of improving the system of education of youth in the spirit of military patriotism among students of higher educational institutions.

Kirish. Bugun mustaqil O'zbekiston davlatining talabasi – kasbiy faoliyatda qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqaro, ixtisosga doir bilimlarini va mahoratni mukammal egallagan, o'z kasbini yaxshi ko'radigan erkin va ijodiy fikrlay oladigan, o'ziga talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i darkor.

Adabiyotlar tahlili. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarda harbiy xizmat va vatan ximoyasiga bo'lgan ijobiy munosabatni rivojlantirish, harbiy

kasblarni egallash masalalari bo'yicha yurtimizdagi bir qator mutahassislar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar, jumladan: vatanparvarlik tarbiyasining metodik jixatlari va yoshlarning vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda tarbiyaning o'rni, Vatanparvarlik tarbiyasining milliy hususiyatlari masalalarida Sh.M.Mirzaxmedov, S.A.Axatov, A.Sotvoldiyev, S.X. Xabibullayev, Sh.Ubaydullayev, Sh.X.Tilavoldiev, U.Z.Melikuziyevlar tomonidan olib borilgan taqiqotlarda o'z ifodasini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida harbiy vatanparvarlik tarbiyasi ishlarida yoshlarda harbiy pedagogik jarayonni takomillashtirishda A.V. Baraban, V.I. Vdovyuk, N.F. Fedenko, N.I. Kiryashov, V.N. Gerasimov va boshqalar bo'yicha o'rganilgan.

Xorijiy davlatlarda V.F. Shatalov, E.N.Ilyin, N.N.Paltyshev, V. Ya.Slepov, S. M. Kirov, A. V. Kozlov tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o'ziga xos shakllari sifatida namoyon bo'lish masalalari tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning asosiy konseptual jihatlari haqidagi taklif va g'oyalar, ularni amalga oshirning zaruriyati, usullari haqida nazariy ma'lumotlar ilgari surilgan.

Tahlil va natijalar. Innovatsion yondashuv asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish, qadriyat sifatida shakllantirish va rivojlantirish vatanimiz taraqqiyotiga o'zini daxldor deb biladigan, Vatan va xalq manfaatlarini o'zining manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, fidoyi va jonkuyar, mustaqil ong va tafakkurga hamda o'zining faol fuqarolik pozitsiyasiga ega tamomila ma'rifatli, yuksak ma'naviyatli shaxslarni tarbiyalash va kamolga yetkazish vazifalarini ko'zlaydi.

Innovatsion yondashuv asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish, vijdon, jonkuyarlik, ma'rifat, munosabat, nafsni tiyish, samimiyat, farosat, shaxsiy takomillashuv hissi kiradi (1-rasm).

Shu bilan birga talabalarni kasbiy ma'naviyati konseptual jihatlari o'zlari tanlagan kasblariga sadoqat ruhini shakllantirish, ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota bobolarimizning moddiy ma'naviy merosiga chuqur hurmat tarbiyalash, ularning qalbi va ongida mehr-oqibatni, odobni, hurmat-izzatni, halollik va poklik tushunchalarini singdirishdan iborat.

Shu bilan birga tarbiya ta'lim bilan egizak bo'lgani kabi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarining ibtidosida ta'lim oluvchilarning ma'naviy qiyofasini belgilovchi konseptual jihatlardan iborat. Konseptual deganda odatda o'rganilayotgan hodisa,



1-rasm. Talabalarda shakllantirilishi lozim bo'lgan vatanparvarlik fazilatlarlari.

tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlarlari bo'yicha tahlil etish, taqqoslash nazarda tutiladi.

Shunday qilib, innovatsion yondashuv asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirishning konseptual jihatlarlari quyidagi insoniy xususiyatlarni qamrab oladi:

Or-nomus. Bu tushunchaga o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'rif beriladi: Xijolat tortish, uyalish tuyg'usi; kishini ulug'laydigan, unga nisbatan hurmat tug'diradigan ish, narsa yoki xislat-fazilat; shon-sharaf. Nomus – burch va qadr-qimmat tushunchalari bilan bog'liq bo'lgan hissiyot, shaxsning o'z qadr-qimmatini anglab yetishi, shu qadr-qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga bo'ladigan munosabati bilan belgilanadigan tuyg'u. Gohida nomusni "Or" tushunchasi bilan chalkashtirish hollari ham uchrab turadi. Lekin, aslida, nomusga nisbatan or ancha tor qamrovli, nisbatan zalvorsiz tushuncha. Chunonchi, oriyatli odam deganda, o'z so'zining ustidan chiqadigan, sadaqa tarzida qilingan muruvvatlardan baland turadigan shaxs tushuniladi. Nomusning esa "Toshi og'ir" – u ijtimoiylik xususiyatiga ega, keng qamrovli. Nomus yo'lida inson hatto o'z hayotidan kechishi mumkin, odamlar o'z nomusi, oila nomusi, millat nomusi deb kurashadi. Harbiy jamoa singari sohalarida jamoa nomusi ham alohida ahamiyatga ega, bunda nomus "Obro'" tushunchasi bilan bog'lanib ketadi. Bularning hammasi o'zini hurmat qilish, o'ziga nisbatan atrofdagilarning hurmat-izzatini yo'qotmaslik uchun o'z-o'zini nazorat qilish hissidan kelib



chiqadi. Nomussizlik insonni pastkash, tuban, aldamchi kimsaga aylantirib qo'yadi, unday odamdan qarindosh-urug'lar ham, jamoa ham nafratlanadi. Shu sabab o'zini anglab yetgan har bir shaxs hech qachon nomussizlikka yo'l qo'ymaydi. Nomus kishining o'z mavqeini saqlash, ulug'lash va ardoqlash, xijolat tortish tuyg'ularini oila, keng ma'noda xalqi va yurti, ajdodlar sha'niga dog' tushirmaslik ma'nosini ham ifodalaydi.

G'urur. G'ururli inson o'z shaxsini kamsitishga yo'l qo'ymaydi, g'ururini yo'qotmaslik yo'lida u har qanday qiyinchiliklardan, jazolanishdan cho'chimaydi. G'urur insonning yuksak ma'naviyat egasi ekanidan dalolat beradi. G'urur ayni paytda nafaqat insonning o'zi bilan, balki o'zi mansub bo'lgan jins yoki etnik kelib chiqishi bilan faxrlanish hissini ham anglatadi. Masalan, yigitlik g'ururi, qizlik g'ururi, milliy g'urur. Lekin g'urur me'yorida bo'lishi, ya'ni kishining asl qadr-qimmatiga mos kelishi lozim. G'ururdagi me'yorning buzilishi kishining kibrga berilishiga olib kelad. Odatda davlatning qanchalik tez rivojlanishi, bu borada odamlarga kuch-quvvat baxsh etish, mamlakatning dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallashi, avvalambor, xalqning ma'naviy saviyasi, g'ururi va faxri nechog'lik yuksak bo'lishiga bog'liqdir. Har bir fuqaroda mana shunday tuyg'ularni shakllantirish milliy g'ururning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ogohlik. Ogoh bo'lishlik, hushyorlik. O'z vataniga sodiq, halqi va millati kelajagi va uning rivojlanishiga butun vujudi bilan xizmat qila oladigan har bir fuqaroning eng muhim bo'lgan fazilatlaridan biridir. Bugun biz hayot sur'ati beqiyos darajada tezlashgan shunday zamonda yashayapmizki, insoniyat hozirga qadar bunday davrni boshidan kechirgan emas. Hozirgi zamonda mafkuraviy xatarlar toboro kuchayib bormoqda. Darhaqiqat bugungi tezkor ahborot almashinuvi davrida halqimiz va mamlakatimizning tinch hayotiga rahna solishi mumkin bo'lgan turli ahbort hururjlaridan ogoh bo'lish, tinch hayotimizni ko'ra olmayotgan ayrim kishilar yoki guruhlarning asl maqsadlarini tezkor anglab yetish, ularga qarshi kurasha olish bugungi kun fuqarosining yuksak insoniylik burchidir.

Qat'iyat va iroda. Maqsadni yuzaga chiqarish uchun kishida bo'lgan matonat va qat'iyat. Ixtiyor, xohish. Iroda – odamning ichki va tashqi intilishlari, imkoniyat va salohiyatini maqsad yo'lida safarbar etish, qat'iyat bilan harakat qilish, sinov va mashaqqatlarni yengib o'tishga, har qanday sharoitda ham ruhiy muvozanatni saqlashga asos bo'ladigan ma'naviy fazilat. Harbiy kasb sirlarini o'rganish jarayonida, harbiy xizmat mashaqqatlari oldida bosh egmaslik, uni matonat bilan yengib o'tish, qiyinchiliklardan cho'simaslik. Shunday qiyinchiliklarni yengib o'tgan insongina vatan ximoyachisi degan sharafli nomga munosib bo'la oladi.

Axloq. Kishilarning bir-birlariga, oilaga, kasbiga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari



majmui. Muayyan ma'naviy – axloqiy sifatlar (kamtarlik, mehnatsevarlik, odoblilik, samimiylik, mehribonlik, halollik, atrofda qilargalarga yordam qo'lini cho'zish, qo'llab quvvatlash, mas'uliyatlilik, oqibatlilik, e'tiqodlilik, insonparvarlilik, sadoqatlilik, jamoani, odamlarni ajratib yuboradigan illatlarga qarshi tura olish va boshqalar) haqida aniq tushunchalarga egalik kiradi. Axloqiy baho omillariga ko'ra, kasb axloqini har bir kasb-hunarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va vazifalariga qarab bir necha turga ajratish mumkin: o'qituvchilik ixtisosiga qarab – pedagog axloqi, tibbiyot ixtisosiga qarab – shifokor axloqi, harbiy etika, huquqni muhofaza qilish ixtisosiga qarab - yurist axloqi, xizmat ko'rsatish ixtisosligiga qarab – xizmat ko'rsatish etikasi va hakazo

Vijdon. Faqat inson zotiga xos narsa. Vijdon bu insonning ichki olami, o'zi va botiniy quvvatidir. Vijdon bu hayotga va kasbga bo'lgan his-tuyg'ular, reaksiyalar, xohish-istaklar, biror narsani yaxshi ko'rish, yomon ko'rish, moyil bo'lish, nafratlanish, biror holatdan ma'naviy lazzat olish yoxud alamlanish kabi insoniy tuyg'ular majmuasidir. Parvarishlanmagan narsa halokatga yuz tutgani kabi vijdon ham agar etibor ko'rmasa zaiflashib boradi va kun kelib butkul yo'qoladi. Vijdonni yo'qotmaslikning sababi kishining yaxshi oilada, kasbiy ta'limda ma'naviyati boy oliyjanob ustozning qo'lida kamol topishidir.

Ma'rifat. Bilim-ilm, kasb egallash ma'nosida u yoki bu insoning tabiat, jamiyat, inson mohiyati haqidagi bilim va ilmlarni egallaganlik darajasi va kasbga aloqadr bo'lgan jihatlarni targ'ibot eta olishi, ma'naviy ruhiy qoniqish bayoni. Ma'rifatli degani esa – muayyan sohada ma'lumoti bor, ko'p narsani biladigan, mushohada qiladigan, bilimli, o'qimishli, qobiliyatli demakdir. Kasbiy ma'rifat - turli kasblar, ixtisosliklar, mansab lavozimlari, tanlangan kasbni, ixtisoslikni egallash mumkin bo'lgan ta'lim turlari to'g'risida shuningdek, kasbning insonga, uning jismoniy, psixologik va shaxsiy sifatlariga, salomatligiga qo'yadigan talablari haqida ma'lumotlar berish

Vatanparvarlik. Vatanparvarlik – yurt mustaqilligini mustahkamlash, vatandoshlarining baxt-saodati yo'lida mehnat qilish. Vataniga muhabbatli bo'lish, uning yutuqlaridan quvonish. Vataniga, millatiga xiyonat qilgan kimsalarga nisbatan faol salbiy fuqarolik pozitsiyasi mavjudligi, Vatan salohiyatini oshirish va uni muhofazasi uchun jonkuyarlik qilish (Vatan mulkini avaylab-asrash, uning yuksalishi uchun halol mehnat qilish, o'zini bag'ishlash, bu yo'lida tama'ni yaqinlashtirmaslik va h.k.)

Mexnatsevarlik ruhida tarbiyalanganlik. Mehnatning ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyatini bilish. O'zida aqliy va jismoniy mehnat ko'nikma va malakalarini rivojlantirish. Talabalar o'zini – o'zi boshqarishda, hasharlarda ishtirok etish. O'zining va boshqalarning mehnat mahsuli bo'lgan, moddiy, ma'naviy

ne'matlarni asrash. Jamoada yashash, mehnat qilish ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish

Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik ruxida tarbiyalanganlik. Millatlararo totuvlik, milliy va kasbiy xususiyatlar g'oyasining mohiyatini tushinish. Boshqa xalqlar madaniyati, turmush tarzi, hayotiy intilishlariga nisbatan hurmatda bo'lish. O'zga millat vakillari bilan do'stlashish, ahil bo'lish. O'zga dinga e'tiqod qiluvchilarning haq-xuquqlarini hurmat qilish, diniy urf-odatlarini hamda marosimlariga to'g'ri munosabatda bo'lish. Boshqa xalqlar dini, madaniyati, turmush tarziga nisbatan hurmatda bo'lish

Nafsni tiyish. Inson ma'naviyatiga dahildor xodisa. Aslida nafsni tiyish degan narsani oilada ham o'rgatish kerak. Boshqalarning kasbiy qobiliyatlarini ko'ra olmaslik yoki o'z kasbidan foydalanib o'zgalarning haqqiga hiyonat qilish kasbiy ma'naviyatsizlikdir. Inson nafsini hamisha tarbiyaga muxtoj. Inson o'z nafsini tiyish va uni tarbiya toptirishi bilan kamolga yetadi. Komil insonlarning barchalari o'z nafsini tiyib, uni tarbiyalab kamolga yetkazgan kishilardur. Zero o'z nafsini tiyolmagan odamdan komil inson chiqishi qiyin. Millatimizda nafsni poklash, inson o'zini-o'zi tergap, ertangi kunga nima tayyorlaganiga nazar solishi muhimdir. Nafsni tiyish kasbiy ma'naviyatining gulto'ji bo'lib korrupsiyaga tamoman qarshi turadi.

Samimiylik. Qachon insonda samimiylik paydo bo'ladi? Qachonki, uning qalbida g'araz, gina-kudurat kabi bировga nisbatan adovat uyg'otuvchi xislat qolmasagina u samimiy bo'la oladi. Shuning uchun ham odamlar bunday kishining gapini quloqqa olib, unga ishonib, uni hurmat qilishadi. Kasbiy ma'naviyat rivojida samimiy inson deganda har bir ishini chin dildan bajaradigan, aytgan gapi bilan ishi to'g'ri keladigan, bировga nisbatan qalbida hech qanday g'ashlik va adovati bo'lmagan, kek saqlamaydigan kishi tushuniladi.

Xalollik. Har bir insonning o'z kuchi bilan mehnat qilishi, shuning evaziga topgan mol-mulki, obro'si, jamiyatga tutgan o'rni, hulqining to'g'rilligi, so'zida qat'iylilik va sadoqatining majmuasidir. Halollikni uning dastlabki tor diniy mazmunida qaysi taom haromu, qaysinisi halol, degan ma'noda tushunmaslik lozim. U allaqachon umuminsoniy, dunyoviy mano kasb etgan me'yorga aylangan.

Rostgo'yilik. Halollikning bir ko'rinishi bo'lib, haqiqatni gapirish, o'zining ham, o'zgalarning ham qadr-qimmatini to'g'ri baholash, yaxshini yaxshi, yomonni yomon deb ochiqchasiga aytishdir. Rostgo'yilik vijdon tushunchasi bilan bog'liq, insonning o'ziga munosabati o'ziga munosabatidek sof bo'lishini talab etuvchi meyorlardir.

Insoffilik. Insonni odam qiladigan ham, ado qiladigan ham insof degan ajoyib xikmat bor. Insof xaddan oshmaslikdir. Hazrat Alisher Navoiyning "Insof ila adl qasrini qur" degan ishorasida qancha ma'no va mazmun yashiringan. Har



bir insonning insofli bo‘lishida, avvalambor, uning oilasidagi muhit, ota-ona va maktabdagi o‘qituvchi ustozlarning ta’lim-tarbiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Insonni har bir ishda ham, gapda ham, kasbida ham insofli bo‘lishi kerak. Insof bu faqat haqiqatni aytish emas, balki xalol mehnati, kishilarning ko‘nglini topa bilish va ularga mexribonlik ko‘rsatishdir. Insof hayotning hamma jabhalariga tegishli bo‘lgan munosabatlardir. Bu munosabatlar orasida kasbiy xalollik, savdo-sotiq va oldi-berdilar, tarozi va o‘lchovlardan urib qolmaslik musulmon axloqining ajralmas qismi ekaniga etibor qaratiladi va xaridor haqiga xiyonat qilmaslik aloxida ahamiyatga ega.

Shuningdek, innovatsion yondashuv asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirishning asosiy konseptual jihatlariga sobitqadamlik - niyat qilingan ishga jiddiy kirishish va oxiriga yetmaguncha undan chekinmaslik, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, sabr qanoat – boshga tushgan qiyinchiliklarni chidam bilan yengish, kamtarlik kishining o‘zini tabiiy holda qanday bo‘lsa shundayligicha hamma bilan teng bab-barobar tutishi, shijoat – botirlik, jasorat, dovyuraklik, mardlik va pokizalik ham kirib, u kasb ahloqining normasi sifatida har bir hodimdan kiyim-kechagining, aft-atvorining, ish joyining pokiza bo‘lishini hamda qalbining pok bo‘lishini, yeyiladigan taomlariga harom aralashmasligining, halol bo‘lishi kabi talablarni qo‘yadi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki vatanparvarlik tushunchasi keng qamrovli masala bo‘lib, uni birgina meъzon bilan o‘lchash qiyin. Vatanparvarlik fazilatini tarkib toptirishda shaxsning barcha xususiyatlari e’tiborga olinishi zarur.

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonova va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi. T.: “Fan va texnologiyalar” 2010 yil.
2. A.Minovarov. Pedagogika. T.: “O‘qituvchi” 1996 yil.
3. Sh.Tilavoldiyev, A.Akbarov. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari. Farg‘ona. 2003 yil 1.
- R.Mavlonova va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi. T.: “Fan va texnologiyalar” 2010 yil.
5. Sh.Tilavoldiyev, A.Akbarov. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari. Farg‘ona 2003 yil.
6. З.Г.Нуриддинов. Педагогические идеи Абу Райхана Беруни. - Ташкент: Фан, 1989 год.
7. М.Г.Тайчинов. Воспитание и самовоспитание школьников -М.: Просвещение. 1982 год.
8. N.Ortiqov. Ma’naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. –Toshkent, 1997 yil.
9. G.K.Masharipova. Xorazm Ma’mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy me’rosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri. Monografiya. – Toshkent: Navro‘z, 2019 yil.
10. O.Musurmonova. Talabalarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish. – Toshkent: Fan, 1993 yil.
11. N.E.Muhammadiev. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati. - Toshkent, 2005 yil.